O‘ZBEKISTON KINO SAN’ATIDA “POETIK KINO” AN’ANALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJI

Karimova Nigora Ganiyevna,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
San’atshunoslik instituti direktori, “Kino san’ati va
audiovizual tadqiqotlar” bo‘limi boshlig‘i
Nigora Karimova — ORCID: https://orcid.org/0009-0000-1269-9865
E-mail: nigoragani06@gmail.com
Science ID: DTN-0726-0068

Annotatsiya. O‘tgan asrning oltmishinchi yillari o‘rtalariga kelib, «O‘zbekfilm» kinostudiyasida «iliqlik» davrining g‘ayrati jo‘shib turgan yangi avlodi paydo bo‘ldi. Ular nafaqat atrofdagi voqeliklar bilan, balki madaniy-milliy an’analar asosida yuzaga kelgan dramatik andozalar bilan muloqotga kirishishdi. Bu davrda Sh.Abbosov, E.Eshmuhammedov, R.Botirov, D.Salimov, A.Hamroyev kabi rejissyorlar, O.Agishev, U.Nazarov kabi ssenariy mualliflari, D.Fatxullin, H.Fayziyev kabi operatorlarning ijodiy faoliyatida milliy kino uchun badiiy vositalar va imkoniyatlarni intensiv tarzda izlash, qahramonlar obrazini teranroq yoritib berish uchun urinishlar ko‘zga tashlana boshladi.

Kalit so‘zlar: badiiy film, poetik kino, rejissyor, ssenariy muallifi, art-xaus, kadr, janr, an’ana.

Аннотация. К середине 1960-х годов на киностудии «Узбекфильм» сформировалось новое поколение кинематографистов, проникнутое духом эпохи «оттепели». Они вступили в диалог не только с окружающей действительностью, но и с драматическими канонами, сложившимися на основе национально-культурных традиций. В этот период в творческой деятельности таких режиссёров, как Ш.Аббасов, Э.Эшмухамедов, Р.Батыров, Д.Салимов, А.Хамраев, сценаристов О.Агишева, У.Назарова, а также

операторов Д.Фатхуллина и Х.Файзиева отчётливо проявились интенсивные поиски новых художественных средств и возможностей национального кинематографа, а также стремление к более глубокому раскрытию образов персонажей.

Ключевые слова: художественный фильм, поэтическое кино, режиссёр, сценарист, арт хаус, кадр, жанр, традиция.

Abstract. By the mid-1960s, a new generation of filmmakers inspired by the energy of the "Thaw" era emerged at the "Uzbekfilm" film studio. They engaged in a dialogue not only with the surrounding reality but also with dramatic conventions rooted in cultural and national traditions. During this period, the creative work of directors such as Sh.Abbasov, E.Eshmukhamedov, R.Batirov, D.Salimov, and A.Khamraev, screenwriters O.Agishev and U.Nazarov, as well as cinematographers D.Fatkhullin and K.Fayziev, demonstrated an intensive search for new artistic means and possibilities in national cinema, alongside a strong effort to reveal character images more deeply.

Keywords: feature film, poetic cinema, film director, screenwriter, art house, frame (shot), genre, tradition.

O‘tgan asrning elliginchi yillari oxiri va oltmishinchi yillari boshlari badiiy filmlar ishlab chiqarishning bosqichma-bosqich ko‘payishi, ularning janrlari va uslubiy doiralarining kengayib borishi, zamonaviy mavzularga yanada ko‘proq tarzda murojaat qilish hodisalari bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda maydonga kelgan yangi avlod vakillari – Sh.Abbosov, A.Hamroyev, R.Botirov, E.Eshmuhammedov, O.Agishev, D.Salimov, Q.Kamolova, U.Nazarov, D.Fatxullin, X.Fayziyev kabi ijodkorlar o‘zlarini tez sur’atlarda jonli tarzda namoyon qila oldilar [1]. Mazkur davr kinosini ko‘z oldimizga keltirishimiz uchun bir nechta filmlarini eslatib o‘tish kifoya: “Laylak keldi, yoz bo‘ldi”, “Nafosat”, “Sevishganlar”, “Sen yetim emassan”, “41-yil olmalari”, “Achchiq danak” va ko‘pgina boshqa filmlar. Bu qatordan o‘rin olgan filmlar kelgusida “o‘zbek poetik to‘lqini”ning asosiy bosqichlarini belgilash huquqiga ega bo‘lib, uning ijodiy

fikrlash miqyosini va salohiyatini ko‘rsatib beradi. O‘sha uzoq yillarda odamlar ongida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘zbek kinorejissyorlari – Shuhrat Abbosov, Ali Hamroyev, Elyor Eshmuhammedov, Ravil Botirov, Qamara Kamolovalarning kinoasarlarida o‘zining yorqin ifodasini topdi. Bu avlodga mansub rejissyorlar iste’dod va konseptual fikrlash qobiliyati bilan ajralib turadi. 1960-yillar bo‘sag‘asida yosh o‘zbek kinematografistlari o‘z filmlariga yangi ijodiy uslubni, ya’ni poetik ifoda etish uslubini tadbiq etdilar. Ular nigohida yaratilgan olam go‘yoki yangidan, dabdaba va safsatalarsiz, bevosita o‘zining haqiqiy holatida ko‘rinayotgandek edi. Yosh kinoijodkorlar voqelikni nafaqat yangitdan angladilar, balki milliy-madaniy an’ana va poetik ifoda asosida muqobil dramaturgik modelini yarata oldilar ham. Natijada, kundalik turmushning o‘ziga xos shoirona kayfiyati filmlarda o‘z aksini topdi. Albatta, mazkur jarayonda texnologik uskunalarning, yoritish vositalarining takomillashuvi, vazni ancha yengil bo‘lgan kameralarning taomilga kirishi ham qo‘l kelgan edi. Kadrlar va kayfiyatlar nafis harakatining shaffofligi va ravonligi, “poetik” tabiati, musiqaviy leytmotivning jozibadorligini ta’minlar edi. Xususan, kinodagi musiqaviy dramaturgiyaga yondashuv ham tubdan o‘zgardi. Endi kinoijodkorlarni ko‘proq qahramonning voqelikka munosabati va uning ma’naviy-ruhiy izlanishlari, hayot mezonlari va inson ichki olami o‘rtasidagi ziddiyatlar, nomuvofiqliklar, muvozanatsizliklar ichra o‘zini izlayotgan shaxslar dunyosi qiziqtirar edi.

Oltmishinchi yillar avlodini umumiy estetik dastur doirasida birlashgan bir xil fikrlovchi ijodiy hamjamiyat deb hisoblash to‘g‘ri emas, har holda bu avlod vakillari o‘zlarining yoshlarida va badiiy qiziqishlarida tafovutlar borligiga qaramay, ongli ravishda milliy kino san’atini jahon talablari darajasiga ko‘tarishga intilib kelishgan.

Bu davrdagi o‘zbek kino san’ati dunyoga bir nechta sermazmun va yorqin kartinalarni taqdim qildi. «Mahallada duv-duv gap» kartinasi art-xaus kinomanifestlariga tegishli emas. Juda bo‘lmaganda, uni oddiy komediya filmi deb

atash mumkin bo‘ladi. Film yosh, ko‘pchilikka tanilib ulgurmagan, o‘zbek kinorejissyori Shuhrat Abbosovning to‘liq metrajli formatdagi debyut filmidir.

Qaysi film durdonaga aylanishini oldindan bilib bo‘lmagani kabi yutuqlarni, ayniqsa, san’atdagi muvaffaqiyatlarni ham oldindan rejalashtirish mumkin emas. Yosh rejissyorning filmida uning ikki vosita – teatr va kinoni uyg‘unlashtirish istagi aniq ko‘zga tashlanadi. Shuhrat Abbosov kartinasining mazmuni o‘sha paytlarda kinoteatrlarda namoyish etilgan ko‘plab filmlardan o‘zining foydali jihatlari bilan ajralib turgan. Kinokomediyada paxsa devorli hovlilar yangi qurilgan ko‘p qavatli binolar bilan yonma-yon joylashgan hududlardagi odamlarning haqiqiy hayoti barcha quvonchlari va qayg‘ulari bilan ishonchli tarzda tasvirlab berilgan. Film o‘zining juda g‘aroyib, keng ko‘lamli syujeti bilan ajralib turadi. Unda tasvirlangan oddiy voqealar zanjirining badiiy ta’sirchanligi bastakor M. Leviyevning ajoyib ijro etilgan, yorqin va diltortar musiqalari tufayli ham ancha yuksalgan.

Muloqotlarni mahoratli yozuvchi Abdulla Qahhor mohirona tarzda ekranga moslashtirgan. Filmdagi iboralar iqtiboslarga aylanib borgan. M.Leviyevning saundtreki – valsi esa televizor ekranlari orqali hayotimizga kirib keldi. Filmdagi shoir Uyg‘un she’rlari asosida ishlangan qo‘shiqlar o‘zbek sahnasi estradasi repertuarlaridan mustahkam joy oldi va mustaqil asarlar sifatida ham yangray boshladi.

Sh. Abbosovning «Mahallada duv-duv gap» filmi o‘zbek kinosan’atidagi «yangi to‘lqin»ning o‘ziga xos nishonasiga aylandi. Uning keyingi «Sen yetim emassan» (1962), «Qalbingda quyosh» (1965), «Toshkent – non shahri» (1967) kabi filmlarida «poetik» sarguzashtlar O‘zbekiston kino san’ati rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biriga yo‘l ochib bergan mualliflik hikoyalariga aylandi.

Zamonaviy jamiyatning murakkab ziddiyatlarini yangicha mazmundagi kinematografik til orqali yoritib berishga bo‘lgan urinishlar bilan bog‘liq tarzda «mualliflik filmi» yo‘nalishining paydo bo‘lishi Ali Hamroyevning «Laylak keldi, yoz bo‘ldi» (1966), «Muxlis» (1973), «Inson qushlar ortidan boradi» (1975) kabi

filmlarida o‘z ifodasini topdi. Rejissyor o‘zining keyingi «Favqulodda komissar» (1970), «Shijoat» (1971), «Yettinchi o‘q» (1972) kabi filmlarida ushbu tendensiyalarni tarixiy-inqilobiy filmlarning janr yo‘nalishlarini o‘zgartirish yo‘lida rivojlantira oldi.

«Olmos» (rej. D.Salimov, 1966), «Sening izlaring» (rej. R.Botirov, 1964), «Surayyo» (rej. U.Nazarov, 1964) filmlari kino ekranini inson ongiga qaratar ekan, uni ruhiy sokinlik, mehr-oqibat, donolik va rahm-shafqatli bo‘lishga undaydi va bu bilan o‘zbek kinematografiyasining rivojlanishidagi yangi marralarni belgilab beradi.

Bu davrda komediya janri ham o‘zining qonuniy shartlarini qo‘ya boshlaydi. Tomoshabinlarning ko‘ngil ochish va hordiq chiqarishga bo‘lgan xohish-istaklari «Stadionda uchrashamiz» (rej. Z.Sobitov, 1956), «Maftuningman» (rej. Yu.A’zamov, 1958), «Mahallada duv-duv gap» (rej. Sh.Abbosov, 1960), «Sinchalak» (rej. L.Fayziyev, 1961), «Yor-yor» (rej. A.Hamroyev, 1964) filmlari orqali qondiriladi. Umuman olganda, bu filmlar taniqli kino, teatr va estrada san’atkorlari ishtirokidagi kino jamlanmalar edi. Jozibali va asl kinokomediya andozalari bo‘yicha suratga olingan «Maftuningman» filmidagi vazmin syujetlar sevgi-muhabbat mavzulari, musiqa va qo‘shiqlar bilan boyitilgan. Filmdagi asosiy rollarni yosh aktyorlar – K.Jalilova, S.Devonov, T.Azizov ijro etishgan. Filmning qariyb birinchi kadrlaridanoq siz haqiqiy yulduzlarning yorqin timsolini tomosha qilishingiz mumkin. Epizodlarda N.Rahimov, A.Bakirov, G‘.A’zamov, R.Hamroyev kabi taniqli aktyorlar bilan bir qatorda S.Yarashev, M.Turg‘unboyeva, X.Nosirova kabi o‘zbek sahnasi va estradasining yetakchi namoyandalari ham ishtirok etishgan. Buning natijasida romantik komediya nafaqat qiziq, balki chinakam yulduzlar ishtirokidagi filmga aylandi. Film milliy ekrandagi o‘ziga xos janrning andozasi sifatida namoyon bo‘ldi, keyinchalik uning fenomeni taqlid ob’ekti bo‘lib qoldi. Buni muvaffaqiyatli ijro etilgan va unchalik muvaffaqiyatli chiqmagan ko‘plab remeyklar ham tasdiqlaydi...

Toshkent mavzusi yosh kinoijodkorlar Elyor Eshmuhammedov va Odilsho Agishevning ijodiy tandemida asosiy mavzuga aylandi. «Nafosat» (1967) filmida juda muvaffaqiyatli namoyish etilgan [2]. Toshkent shahri, Anhor kanali, bolalik bilan xayrlashish motivlari mualliflarning keyingi barcha filmlarida qayta takrorlanadi. «Nafosat» filmida shahar manzaralari birinchi marta o‘zining kinematografik qiyofasini topdi, xarakterlar, vaziyatlar, vaqt hissini anglatuvchi suhbatlar orqali kundalik hayotning ko‘z ilg‘amas moddiyatlari ko‘rsatib berildi. Film voqealari sevgi, do‘stlik va atrofdagi murakkab muammolar haqidagi lirik qissaga aylangan hissiyotli novellalar zanjirida jamlangan. Rejissyor faqat qahramonlarning hayoti va ruhiy holatini tasvirlash bilan cheklanib qolmagan. Sanjar, Temur, Lena, Ma’mura kabi ushbu film bosh qahramonlarining taqdirida hayot yo‘llari har doim kutilmagan paytda va tasodifan, xuddi ataylab uyushtirilgandek kesishib o‘taveradi va bu holat oxorli talqini bilan tomoshabinni o‘ziga jalb qiladi: Toshkent ko‘chalari, Anhordagi “ballonlar flotiliyasi”, radiolardan taralgan musiqa ohangi, kutilmagan uchrashuvlar, sevgi umidida gurillab yongan qalblarning turfa mavzulardagi chiroyli suhbatlari... Qahramonlarning yo‘llari doim shahar va tabiatning kesishgan nuqtasi – Anhor kanali qirg‘oqlarida kesishadi.

E.Eshmuhammedov va O.Agishevning «Sevishganlar» (1969) nomli ikkinchi ishi avvalgi filmda ko‘tarilgan jilovsiz muhabbat, hissiyotlarning nafisligi, beg‘arazlik va jonni fido qilishga tayyorlik kabi mavzularni rivojlantiradi. Filmning sodda plastik qurilmasida kinokameraning ob’ektivi kuzatuvchi vazifasini bajargan. Mualliflar o‘zlarining «kuzatuvchi»si bilan birgalikda, orzularga qanot bohlovchi makon – Toshkent shahriga bo‘lgan o‘z muhabbatlarini izhor qilishgan. Qalblarni, insonlarni bir-biridan ajratib turuvchi chegaralar, to‘siqlarni yengib o‘tish filmning asosiy g‘oyasi sifatida bo‘y ko‘rsatadi.

Asosiy qahramonlar rolini Rustam Sagdullayev, Rodion Naxapetov, Anastasiya Vertinskaya, Shuhrat Ergashevlar ijro etishgan. Shu o‘rinda, film davomida bexosdan, ayrim mo‘jaz epizodlarda – Hamza Umarov, Baxtiyor

Ixtiyorov, Melis Abzalov, Javlon Hamroyev, Vladimir Baramikov, Nelya Ataullayevalarni uchratish ham juda maroqlidir.

Shunisi e'tiborliki, 1967-yilda «Nafosat» filmi Lokarnoda o'tkazilgan nufuzli Xalqaro kinofestivalning tanlov dasturiga tanlab olingan va maxsus diplom bilan taqdirlangan. Film mutaxassislar orasida juda katta taassurot uyg'otgan va «poetik» yo'nalishdagi eng yaxshi asarlardan biri sifatida e'tirof etilgan. «Sevishganlar» filmini esa 20 milliondan ziyod tomoshabin tomosha qilgan va SSSR kinoteatrlarida rekord darajada qo'yilgan filmlarning rasmiy ro'yxatiga kiritilgan.

Yosh toshkentliklar haqidagi lirik filmlarning xalqaro miqyosdagi ulkan yutuqlaridan so'ng kinorejissyor E.Eshmuhammedov ssenariy mualliflari O.Agishev va J.Is'hoqovlar bilan hamkorlikda «Qanday bizning yillar!» (1981), «Alvido, g'o'r yoshligim!» (1985), «Karaxtlik» (1988) filmlarida yana o'sha o'zlarining tanish qahramonlari, sevimli Toshkent muhitiga murojaat etadilar. Kommunal kvartiralardagi hayot, Toshkentning eski hovlilari, yozgi kinoteatrlar tasvirlangan maishiy turmush ko'rinishlari mazkur filmlarda o'z aksini topib, o'sha og'ir yillardagi ichki muhit teran ijtimoiy tagma'no bilan aniq tasvirlab berilgani bilan yuksak ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shahar balladalaridagi qahramonlarning milliy, madaniy, konfessional rang-barangligi hamda intilishlar yoki manfaatlar qarama-qarshiligi ham diqqatga sazovordir [2]. Endi biz Rustam va Sanjarlarning ancha ulg'aygan obrazlarini kuzatamiz. Do'stlik va muhabbat, sadoqat va adolat haqidagi tushunchalar ham endi o'zgacha. 60-yillardagi beg'ubor o'spirin Sanjar jamiyatdagi ma'naviy tannazul va korrupsion jarayonlarda "toblanib", chayqovchiga aylanib ulgurganini, Rustam esa hanuz sofdil adolat kurashchisi ekanini kuzatamiz.

Keyinchalik Sh.Abbosov, A.Hamroyev va E.Eshmuhammedov tomonidan suratga olingan filmlar «o'zbek poetik to'lqini»ning muhim bosqichlarini belgilovchi alohida xususiyatlarga ham ega bo'la boshladi.

Ali Hamroyevning ijodi ushbu davr kinematografiyasida muhim voqea bo‘ldi. Uning filmlarida polistilistika, turli xil janr va plastik yechimlar ustunlik qiladi. Agar «Laylak keldi, yoz bo‘ldi» (1966) filmi poetik janrda ishlangan bo‘lsa, «Inson qushlarning ortidan boradi» (1975) filmi o‘zining lirik-sub’ektiv ohangdorligi bilan ajralib turadi. Uning ijodida favqulodda yorqin va ixcham «Muxlis» filmi (1973), keyin esa «Triptix» (1979) ekzistensialistik dramasi paydo bo‘ladi. Rejissyor Ali Hamroyev filmlarining mufassal motivlari asosan ijtimoiy melodrama janrida suratga olingan. Uning ijodida milliy kinematografiyaning eng katta asosiy yutug‘i – tomoshabinlar e’tiborining kafolati sifatida ko‘rilayotgan tomoshaboplik va ijtimoiy tanqidning mohirona uyg‘unlashuvi yuzaga keldi. Aytish kerakki, rejissyor Gollivudning “vestern” janriga javoban «Favqulodda komissar» (1970), «Yettinchi o‘q» (1972) kabi tarixiy-inqilobiy filmlari orqali faol tarzda yangi janrni ishlab chiqdi.

O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida «Yoz yomg‘iri» (rej. A.Kabulov, 1970), «Seni kutamiz, yigit» (1972), «Jazirama quyosh ostidagi uy» (rej. G.Bzarov, Z.Royzman, 1977), «Chinor ostidagi duel» (rej. M.Abzalov, 1978) kabi kishilarning shaxsiy hayotini yo‘lga qo‘yishiga bag‘ishlangan filmlar ishlangan. Ushbu o‘n yillikning oxirlaridagi filmlarda tashvishli ohanglar va voqelikning «taqiqlangan» jihatlari paydo bo‘la boshladi. «Ajoyib xayolparast» (rej. R.Botirov, 1977), «Triptix» (rej. A.Hamroyev, 1979) filmlarida sovet turmush tarzining bema’niligi, «tizim»dagi o‘zgacha fikrlovchi kishilarning taqdiri real tarzda tasvirlab berilgan. «Mening mehribon insonim» (rej. R.Botirov, 1973), «Visol va ayriliqlar» (rej. E.Eshmuhammedov, 1973), «Inson qushlar ortidan boradi» (rej. A.Hamroyev, 1975), «Achchiq danak», «Vahshiy» (rej. Q.Kamolova, 1975, 1988), «Jala» (rej. U.Nazarov, 1979) filmlarida iste’dodli insonlar taqdiri va vijdon bahosi nafis ekzistensial shaklda aks ettirilgan.

Odatda, «turg‘unlik» yillari deb ataladigan bu davrda buyurtma asosida ishlangan kinofilmlar bilan bir qatorda voqelikni taftish qilishga qaratilgani kino asarlari ham mavjud bo‘lgan. Bular iste’dodli kinoijodkorlar, R.Botirov,

Q.Kamolova, M.Abzalovlar yaratgan aksariyat filmlardir. Ushbu qatordagi kinoijodkorlar o‘z filmlarida «iliqlik» o‘rniga kelgan «turg‘unlik» va inqiroz belgilarini ziyraklik bilan ilg‘ab olishgan, abadiyat qonunlari bilan yashovchi odamlarning ongidagi qadrsizlanish jarayonlarini, tadqiq etib, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar haqida hikoya qilishgan. Albatta, bunday kino san’atiga partiya organlari, davlat va o‘sha davrda keng tarqalgan senzuraviy tahririyat apparatlari tomonidan qarshilik ko‘rsatish holatlari bo‘lgan. Xususan, A.Xamroyevning «Mevazorlik ayol», Q.Kamalovaning «Yovvoyi» filmlari qattiq tanqid ostiga olingan edi. D.Salimovning «Shum bola» (1976), «Chinor ostidagi duel» (1978), M.Abzalovaning «Suyunchi» (1982), R.Botirovning «Ajoyib xayolparast» (1977) filmlari ham bundan istisno bo‘lmagan. Yetmishinchi yillarning qahramonlari, avvalgi qahramonlardan farqli o‘laroq, o‘zlarini haqiqatdan ajratib, xayolot dunyosiga g‘arq bo‘lgan. Odatda, filmlarning boshlanish nuqtasi kulgili holat bilan boshlangan. Kulgililik va unga singdirilgan yengil istehzo sarguzashtlarning umumiy negiziga singdirib yuborilgan va faqat ko‘ngil ochish xususiyatigagina ega asar bo‘lib qolmagan. Misol uchun, M.Abzalovning «Chinor ostidagi duel», «Suyunchi», «Kelinlar qo‘zg‘oloni» filmlarining qahramonlari ba’zan kulgili bo‘lsalar-da, ularning xarakterlarida xalqona folklor ildizlari seziladi.

Mazkur davrda yaratilgan «Ajoyib xayolparast», «To‘ylar muborak», «Suyunchi», «Vodillik kelin», «Bo‘lmagan voqea» filmlarida kuzatishimiz mumkin bo‘lgan “g‘alati qahramonlar» – ayon voqelik, behuda hayot va orzular o‘rtasidagi ziddiyatlarni ochib berishadi. Filmlarning tasviriy qatlami, badiiy ijrosining to‘liqligi va o‘ziga xosligi ko‘p jihatdan X.Fayziyev, A.Ismoilov, D.Fatxullin, A.Pann, M.Penson, Sh.Mahmudov kabi kinooperatorlarning iste’dodi va mahorati bilan bog‘liq bo‘lgan. Sarguzashtlar shakllarining xilma-xilligiga yanada e’tibor bilan yondashilgani, obrazlarga teran ishlov berilganligi F.Yanov-Yanovskiy, R.Vildanov, Ye.Shiryayev, E.Solihov kabi bastakorlar ijodining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib beradi.

Bu davrda yaratilgan «Orzular og‘ushida», «Mening mehribon insonim», «Seni kutamiz, yigit», «Jazirama quyosh ostidagi uy» filmlarda kinosarguzashtlarning lirik-sub’ektiv tendensiyalari shakllandi. Garchi ushbu filmlar sovet hukumati g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lsa-da, zamonaviy tarixchi nuqtai nazaridan qaraganda o‘sha davrni o‘rganish uchun keng qamrovli material, o‘ziga xos tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston kinematografiyasining umumiy taraqqiyotini o‘rganishda ma’lum tarixiy davrlarni tiklash va aniqlashtirish hamda milliy tarixning estetik muhitini talqin qilish tendensiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrning asosiy voqeasi O‘zbekiston kino san’atining o‘z milliy-madaniy an’analariga ega bo‘lishi va bu an’analar bilan o‘zaro munosabat natijasida o‘ziga xos qiyofaga erishishga jiddiy urinishlari bo‘ldi.

Agar XX asrning 60–70-yillarida o‘zbek kinosida poetik, lirik-sub’ektiv tendensiyalar va voqelikning ijobiy baholanishi kuzatilgan bo‘lsa, 1980-yillar oxiriga kelib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar, ma’naviy va ijtimoiy qatlamlardagi salbiy hodisalar haqida hikoya qiluvchi filmlar yaratila boshlandi. “Karaxtlik” (rej. E.Eshmuxammedov, 1988), “Palov” (rej. S.Boboyev, 1987), “Bo‘rilar” (rej. S.Nazarmuhammedov, 1987), “Maxluq yoki o‘zga kimsa” (rej. A.Fatxullin, 1988), “Barxan” (rej. S.Boboyev, 1989), “Samarradagi uchrashuv” (rej. Sh.Abbosov, 1989), “Siz kimsiz?” (rej. J.Fayziyev, 1989) kabi “antiutopiya” xususiyatiga ega rivoyat-filmlar ekranlarga chiqdi. Mazkur ishlarda atrof voqelik, jamiyat muammolariga nisbatan muallifning shaxsiy, sub’ektiv nuqtai nazari ustunlik qiladi, “yorug‘ sovet kelajagi” haqidagi umum qabul qilingan xomxayol tasavvurlar va hayotdgi chorasizlik holati o‘rtasida mavjud ulkan jarlik alohida ta’kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Kino san’ati va audiovizual tadqiqotlar” bo‘limining ***“Zamonaviy O‘zbekiston kino san’atida tarixiy xotira reprezentatsiyasi”*** mavzusidagi tadqiqot ishi doirasida olib borilgan ilmiy o‘rganish davomida 1980-

yillar so‘nggida kinoga kirib kelgan yangi avlod rejissyorlari – D.Fayziyev, S.Boboyev, Yu.Roziqov, R.Malikov, N.Abbosov, Z.Musoqov, J.Qosimov, B.Odilov – yangi falsafa va stilistika ustida izlanishlarga faollik bag‘ishladi. Sovet moduliga xos an’analarning yemirilishi g‘oya va mavzu bilan birga, syujetli-fabulali kesimda ham olib borildi. Bu davr rejissyorlari tomonidan avval taqiqlangan mavzularda filmlar yaratildi. Qolaversa, shakl va uslub jihatdan ham ular katta avlod vakillarining estetik tajriblarini inkor etdilar. O‘zbek poetik kinosi yangi evrilishlar pallasiga kirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Тешабаев Д.** Пути и поиски. — Ташкент: Издателство литературы и искусства. 1979. — 184 с.

2. **Karimova N.G.** 1960–90-yillar o‘zbek badiiy kinosida yosh qahramon obrazi: Diss ... nomz. san’atshunos. – Toshkent: 1997. – 134 b.

3. **Karimova N.G.** O‘zbekiston kino san’ati. – Istambul: Mega Basim, 2021. – 480 b.

4. Karimova N.G. O‘zbekiston kino san’ati: muhrlangan vaqt (o‘zbek, ingliz va rus tillarida). – Toshkent: Silk road media, 2025. – 480 b.